2021- yil mart

# NAMANGAN VILOYATIDA O‘RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA’LIMI TIZIMI









*Namangan viloyati statistika boshqarmasi*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son farmonida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. 2020/2021-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston Respublikasida boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimida tegishli ta’lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlardan iborat professional ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etildi.

# Kasb-hunar maktablarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda
*(2020/2021-o‘quv yili boshida)*

| | |
|---|---|
| Mingbuloq | 2 |
| Kosonsoy | 3 |
| Namangan | 2 |
| Norin | 2 |
| Pop | 3 |
| To'raqo'rg'on | 2 |
| Uychi | 2 |
| Uchqo'rg'on | 2 |
| Chortoq | 2 |
| Chust | 3 |
| Yangiqo'rg'on | 2 |
| Namangan sh | 2 |

Namangan viloyati bo‘yicha 2020/2021-o‘quv yili boshida 27 ta kasb-hunar maktablari mavjud.

# Kasb-hunar maktablarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi, ming kishida
*(2020/2021-o‘quv yili boshida)*




2020/2021-o‘quv yili boshida kasb-hunar maktablarida 7591 nafar o‘quvchi tahsil olayotgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich hududlar kesimida taqsim-langanida, boshqa hududlarga nisbatan o‘quvchilarning yuqoriligi Namangan shahrida – 924 nafar, Yangiqo’rgon tumanida – 782 nafar o‘quvchiga to‘g‘ri kelgan.

# Kasb-hunar maktablari o‘qituvchi xodimlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi
*(2020/2021-o‘quv yili boshida)*

| Hudud | Kishi | Hudud | Kishi |
|---|---|---|---|
| Mingbuloq | 34 | Uychi | 62 |
| Kosonsoy | 85 | Uchqo‘rg‘on | 53 |
| Namangan | 39 | Chortoq | 20 |
| Norin | 59 | Chust | 80 |
| Pop | 77 | Yangiqo‘rg‘on | 55 |
| To‘raqo‘rg‘on | 66 | Namangan sh | 63 |

Namangan viloyati bo’yicha xodimlar jami 693 nafar.

2020/2021- o‘quv yili boshiga kasb-hunar maktablarida jami o‘qituvchilar soni 693 nafarni (o‘rindoshlarsiz) tashkil etgan. Shundan eng ko‘p o‘qituvchi xodimlar Chust tumanida 12 nafar (1,7% i) to‘g‘ri keladi.

## Bitta o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan o‘quvchilar soni, kishi
***(2020/2021-o‘quv yili boshida)***



Namangan viloyati bo‘yicha kasb-hunar maktablarida bitta o‘qituvchiga (o‘rindoshlarsiz) o‘rtacha 9 nafar o‘quvchi to‘g‘ri keladi. Bulardan, hududlar kesimida eng yuqori ko‘rsatkich Chust tumanida qayd etilib, unda bitta o‘qituchiga o‘rtacha 12 nafar o‘quvchi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Chortoq tumanida esa eng past ko‘rsatkich, ya’ni, bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 4 nafar o‘quvchi to‘g‘ri kelgan.

## Kollejlarning hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda
## *(2020/2021-o‘quv yili boshida)*






# Kollejlarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi, kishida
*(2020/2021-o‘quv yili boshida)*




Namangan viloyatida 2020/2021-o‘quv yili boshida 18 ta kollejlarda 3739 kishi tahsil olayotgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich hududlar kesimida taqsimlanganida, boshqa hududlarga nisbatan o‘quvchilarning yuqoriligi Namangan shahrida – 898 kishi, Chust tumanida – 809 kishiga to‘g‘ri kelgan.

# Kollejlar o‘qituvchi xodimlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi
*(2020/2021-o‘quv yili boshiga, o‘rindoshlarsiz)*






# Bitta o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan o‘quvchilar soni, kishi
*(2020/2021-o‘quv yili boshiga, o‘rindoshlarsiz)*




2020/2021-o‘quv yili boshiga Namangan viloyati bo‘yicha jami kollejlarda 311 nafar o‘qituvchi xodimlar faoliyat yuritmoqda. Namangan viloyati bo‘yicha kollejlarda bitta o‘qituvchiga(o‘rindoshlarsiz) o‘rta-cha 8 nafar o‘quvchi to‘g‘ri keladi. Bulardan, hududlar kesimida eng yuqori ko‘rsatkich Norin tumanida qayd etilib, unda bitta o‘qituchiga o‘rtacha 17 nafar o‘quvchi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, To’raqo’rg’on tumanida esa eng past ko‘rsatkich, ya’ni, bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 4 nafar o‘quvchi to‘g‘ri kelgan.

# Texnikumlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda
*(2020/2021-o‘quv yili boshida)*

| | | | |
|---|---|---|---|
| Mingbuloq | 1 | Uychi | 2 |
| Kosonsoy | 2 | Uchqo'rg'on | 1 |
| Namangan t | 2 | Chortoq | 1 |
| Norin | 2 | Chust | - |
| Pop | - | Yangiqo'rg'on | 1 |
| To'raqo'rg'on | 3 | Namangan sh | 4 |

Namangan viloyatida jami 19 ta tehnikumlar faoliyat yuritmoqda.

# Texnikumlari o‘qituvchi xodimlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi
*(2020/2021-o‘quv yili boshida)*

| | | | |
|---|---|---|---|
| Mingbuloq | 15 | Uychi | 42 |
| Kosonsoy | 51 | Uchqo'rg'on | 20 |
| Namangan | 23 | Chortoq | 52 |
| Norin | 32 | Chust | - |
| Pop | - | Yangiqo'rg'on | 9 |
| To'raqo'rg'on | 30 | Namangan sh | 73 |

Namangan viloyatidagi tehnikumlarda jami 347 nafar o’qtuvchi ishmoqda.

# Texnikumlarda ta’lim olayotgan talabalarning jinsi bo‘yicha hududlar kesimida taqsimlanishi, % da
*(2020/2021-o‘quv yili boshida)*

53,4 ayollar

46,6 erkaklar

2020/2021-o‘quv yili boshida Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan texnikumlarda jami tahsil olayotgan o‘quvchilar 3597 nafarni tashkil etib, ulardan 53,4 % ni ayollar, 46,6 % ni erkaklar tashkil etdi.



# Akdemik litseylarda qabul qilingan talabalar soni, kishi (2020/2021-o‘quv yili boshiga)




2020/2021- o‘quv yili boshiga akademik litseylarga jami 1273 nafar talaba qabul qilingan bo‘lib, ulardan 349 nafari 27,4 % ni ayollar, 924 nafari 72,6 % ni erkaklar tashkil etdi.



# Akademik litseylarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar kishi
## *(2020/2021-o‘quv yili boshida)*




Namangan viloyatida 2020/2021-o‘quv yili boshida jami 4 ta akademik litseylar faoliyat yuritmoqda. Ularda tahsil olayotgan o‘quvchilar 2889 nafarni tashkil etib, ulardan 1053 nafari 36,4 % ni ayollar, 1836 nafari 63,6 % ni erkaklar tashkil etdi.

**Ijtimoiy soha statistikasi bo’limi**
**Tel.: (69) 211-72-00**